



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksonometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Abfazova K.S. Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 378.091.3:17.022.1

TALABALARDA MILLIY MADANIYATGA NISBATAN MILLIY G'URUR VA IFTIXOR TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH TAJRIBASI VA SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Rahmatullayeva Gulnozaxon Mavlanjonovna, Dripova Azizaxon Mirzohid qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy madaniyat asosida olib borilgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning talabalarining ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri, mazkur jarayonning samaradorligi tajriba-sinov natijalari asosida yoritilgan. Shuningdek, talabalarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda ma'naviyat asoslari fanining o'rni ilmiy asosda ochib berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar:

milliy madaniyat, milliy g'urur, milliy iftixor, ma'naviy tarbiya, talaba yoshlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ta'lim samaradorligi.

Аннотация.

В статье анализируются педагогические и психологические аспекты формирования у студентов чувств национальной гордости и национального достоинства на основе национальной культуры в процессе преподавания социально-гуманитарных дисциплин. В ходе исследования раскрывается влияние воспитательно-образовательной деятельности, основанной на национальных ценностях, на духовно-нравственное развитие студентов, а также оценивается эффективность данного процесса на основе опытно-экспериментальных данных. Обоснована роль дисциплины «Основы духовности» в развитии национального самосознания, патриотизма и социальной активности студентов. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования методики преподавания социально-гуманитарных наук в системе высшего образования.

Ключевые слова:

национальная культура, национальная гордость, национальное достоинство, духовное воспитание, студенческая молодежь, социально-гуманитарные дисциплины, эффективность обучения..

Abstract.

This article discusses the pedagogical and psychological aspects of forming students' feelings of national pride and identity based on national culture in the process of teaching social and humanitarian disciplines. The study analyzes the impact of educational activities grounded in national values on students' spiritual and moral development and evaluates the effectiveness of this process through experimental research findings. The role of the course Foundations of Spirituality in fostering national self-awareness, patriotism, and social engagement among students is scientifically substantiated. The research results have practical significance for improving teaching methodologies in higher education.

Keywords:

national culture, national pride, national identity, spiritual education, university students, social and humanitarian disciplines, educational effectiveness.

KIRISH. Bugungi globalashuv sharoitida yoshlarning milliy o'zligini anglash, milliy madaniyatga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalanishi jamiyat taraqqiyotining muhim

omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba yoshlarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ma'naviy etuk shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Bu jarayonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning, xususan, "Ma'naviyat asoslari" fanining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi [1].

O'zbekiston Respublikasida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, milliy madaniyat va tarixiy merosni asrab-avaylash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va qarorlarida milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish yosh avlod tarbiyasining mustahkam poydevori ekanini ta'kidlab, ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli asosda tashkil etish zarurligini qayd etadi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida milliy g'oya, vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni takomillashtirish muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu jarayonning samaradorligini tajriba-sinov asosida o'rganish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi [2]. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasida milliy qadriyatlar asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat talabalarning milliy o'zligini anglashiga, ma'naviy kamolotiga va ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur ilmiy maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi hamda ushbu jarayonning samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni takomillashtirishga, shuningdek, magistrlik dissertatsiyasi doirasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

TALABALARDA MILLIY G'URUR VA IFTIXOR TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH TAJRIBA METODIKASI VA DIAGNOSTIKA USULLARI. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish jarayoni maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik tajribani talab etadi [3]. Ushbu tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tajriba metodikasi talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasi, milliy o'zlikni anglash hamda milliy madaniyatga bo'lgan munosabatini kompleks tarzda o'rganishni nazarda tutadi.

Tajriba jarayonida talabalarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida diagnostik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, so'rovnoma, test, suhbat, kuzatuv hamda pedagogik tahlil metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali talabalarning milliy qadriyatlarga munosabati, milliy madaniyatga qiziqishi, vatanparvarlik tuyg'ularining namoyon bo'lish darajasi aniqlandi. Diagnostika jarayonida

olingan natijalar talabalarning dastlabki holati va tajriba yakunidagi o'zgarishlarini solishtirish imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlarining metodik asosini ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida milliy madaniyatga oid materiallardan samarali foydalanish tashkil etdi. Mashg'ulotlarda milliy tarix, urf-odatlar, buyuk ajdodlar merosi, milliy an'ana va qadriyatlarni yorituvchi mavzular interfaol metodlar asosida olib borildi. Bu esa talabalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va milliy iftixor tuyg'ularining mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, tajriba jarayonida talabalarning ma'naviy rivojlanishini aniqlashda psixologik-pedagogik diagnostika usullaridan ham foydalanildi [4]. Talabalarning fikrlash doirasi, qadriyatli yo'nalganligi, ijtimoiy faolligi va milliy madaniyatga nisbatan munosabati tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar milliy madaniyatga asoslangan ta'limiy faoliyat talabalarda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishda samarali ekanini ko'rsatdi.

Umuman olganda, tajriba metodikasi va diagnostika natijalari talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish jarayoni ilmiy asosda tashkil etilganda yuqori natijalarga erishish mumkinligini tasdiqlaydi [5]. Ushbu yondashuv ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

TAJIRIBA-SINOV NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI. Tajriba-sinov ishlari natijalarini tahlil qilish talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlash imkonini berdi. Tajriba dastlabki (diagnostik) va yakuniy (nazorat) bosqichlarda olib borildi. Dastlabki bosqichda talabalarning milliy qadriyatlarga munosabati, milliy o'zlikni anglash darajasi hamda ma'naviy-axloqiy qarashlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba boshlanishida talabalarning aksariyatida milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari etarli darajada shakllanmagan yoki barqaror emas edi.

Tajriba-sinov jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayoniga milliy madaniyatga oid materiallar tizimli ravishda kiritildi. Mashg'ulotlarda milliy tarix, madaniy meros, buyuk ajdodlar hayoti va faoliyati, milliy urf-odatlar hamda an'analar interfaol metodlar asosida o'rganildi. Ushbu yondashuv talabalarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularda milliy o'zlikni anglash va milliy iftixor tuyg'ularining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Yakuniy bosqichda o'tkazilgan diagnostik tahlil natijalari tajriba metodikasining ijobiy samarasini yaqqol namoyon etdi. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan ongli munosabat shakllandi, vatanparvarlik, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ulari sezilarli darajada oshdi. So'rovnoma va test natijalariga ko'ra, tajriba guruhida yuqori va o'rta darajadagi ko'rsatkichlar sezilarli ravishda ko'paydi, past darajadagi natijalar esa kamaydi.

Olingan natijalar pedagogik va psixologik tahlil asosida umumlashtirildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, milliy madaniyatga asoslangan ta'limiy faoliyat talabalarning faqat bilim darajasini emas, balki ularning qadriyatli yo'nalganligini, ijtimoiy faolligini va ma'naviy pozitsiyasini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, mashg'ulotlarda muammoli savollar, munozaralar va mustaqil

fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirdi.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada samarali tashkil etishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA. Mazkur ilmiy maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlari ilmiy-nazariy hamda amaliy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida milliy madaniyatga tayangan ta'limiy faoliyat talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga, milliy o'zlikni anglashiga va qadriyatli yo'nalganligining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishda milliy tarix, madaniy meros va an'analar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarda vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Diagnostik tahlillar tajriba guruhida yuqori va o'rta darajadagi ko'rsatkichlarning oshgani, past darajadagi natijalarning esa kamayganini tasdiqladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari talabalarning milliy madaniyatga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda interfaol metodlar, muammoli ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy yo'naltirilgan topshiriqlarning samaradorligini ko'rsatdi. Mazkur metodlar talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, ularning ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, maqolada ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy natijalar oliy ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarning ma'naviy tarbiyasini yanada kuchaytirish hamda milliy madaniyatga asoslangan ta'limiy yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari magistrlik dissertatsiyasi doirasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni boyitib, kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. Ma'naviyat asoslari va ta'lim metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2020. 70–95-b.
2. G'oziev E. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2019. — 110–150-b.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Fan, 2018. 50–80-b.
4. Немов Р.С. Психология. — Москва: Владос, 2016. 280–310-с.
5. Qodirov B.H. Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy ishlar metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. — 88–110-b.

